



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“2.3. JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI VA MAHORATI” moduli bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

“Jismoniy tarbiya fani yo‘riqchilari”
malaka oshirish yo‘nalishi uchun



Toshkent - 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING
PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI
VA MAHORATI**
moduli bo‘yicha

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari”
maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan
jismoniy tarbiya yo‘riqchilari malaka oshirish kursi uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA

Toshkent – 2024 yil

Modulning o‘quv uslubiy majmuasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

N.E.Yuldasheva - Institut Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasini mudiri

F.O‘.O‘rinova - Institut Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasini dotsenti

Taqrizchilar:

A.A.Zakirov - MTMRMQTMO instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini dotsenti, ps.f.n.

A.A.Shoyusupova - TDSHI “Pedagogika va psixologiya ” kafedrasini dotsenti, p.f.n.

O‘quv uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2024-yil - -----da o‘tkazilgan –sonli yig‘ilish bayoni bilan muhokamadan o‘tkazilgan va Ilmiy kengashga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

| | |
|---|-------|
| I. ISHCHI DASTUR | 6-14 |
| II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI | 15-19 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR | 20-45 |
| IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI | 46-62 |
| V. GLOSSARIY | 63-69 |
| VI. MODUL YUZASIDAN TESTLAR | 70-82 |
| VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 83-85 |

I. ISHCHI DASTUR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI



“Tasdiqlayman”

Institut rektori

I. Tursunaliyev

2024-yil “ 3 ” yanvar

JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING PROFESSIONAL
KOMPETENTLIGI VA MAHORATI
moduli bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

“Jismoniy tarbiya yo'riqchilari”

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan
jismoniy tarbiya yo'riqchilari malaka oshirish kursi uchun

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi:

-tinglovchilarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kompetensiyalari, pedagogik mahorati va professional kompetentligini rivojlantirish yo'llari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish.

Modulning vazifalari:

-pedagogning professional kompetentligi va mahorati yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

-zamonaviy talablarga mos holda ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik va mahorati darajasini oshirish;

-tinglovchilarda jismoniy tarbiya yo'riqchisining pedagogik kompetensiyasi va mahoratidan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

-pedagog faoliyatning vazifalari, pedagogning huquq va majburiyatlarini;

-kompetensiya tushunchasi va mohiyatini;

-pedagogning tayanch kompetensiyalarini;

-kompetensiya turlarini;

-kompetentlik va professional kompetentlik tushunchasini;

-professional kompetentlik sifatlarini;

-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablarni;

-pedagogik mahoratining tarkibiy qismlarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

-professional kompetentlik sifatlarini tahlil qilish;

-mashg'ulot jarayonlarini boshqarishga qo'yiladigan didaktik talablarga rioya qilish;

-pedagogik texnika usullaridan foydalana olish;

-pedagogik qobiliyat turlarini o'rganish va tahlil qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

-professional kompetentlik sifatlariga ega bo'lish;

- pedagogik texnika usullaridan samarali foydalana olish;
- “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalariga ega bo‘lish;
- pedagogik qobiliyat turlaridan o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida samarali foydalanish **malakalariga** ega bo‘lishi kerak.

Tinglovchi:

- professional kompetentligini o‘z-o‘zini baholash orqali tahlil qilish;
- mashg‘ulot jarayonlarini boshqarishda pedagogik texnika va pedagogik qobiliyatlardan samarali foydalanish;
- professional kompetentligini muntazam ravishda oshirib borish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi

boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining professional kompetentligi va mahorati” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi umumiy tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik blokidagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta‘limidagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jismoniy tarbiya yo‘riqchisining pedagogning professional kompetentligi va mahoratini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir umumiy va kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va pedagogik mahoratini oshiradilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

| T/r | Modul mavzulari | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari | | | | | |
|--------------|---|--|----------------------------|----------|-------------------|--------------------|-----------------------|
| | | Hammasi | Auditoriya o'quv yuklamasi | | | | Mustaqil tayyorgarlik |
| | | | Jumladan, | | | | |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot | |
| 1. | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyatining maqsad va vazifalari. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 2. | Jismoniy tarbiya yo'riqchisining kompetensiyasi va modeli. | 2 | 2 | 2 | | | |
| 3. | Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv. | 2 | 2 | | 2 | | |
| 4. | "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida qo'yilgan kompetensiyaviy talablar | 2 | 2 | | 2 | | |
| Jami: | | 8 | 8 | 4 | 4 | | |

1-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyatining maqsad va vazifalari

Reja:

1.1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari, huquq va majburiyatlari

1.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar va tayyorgarligi

Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari. Kasbiy faoliyatning huquq va majburiyatlari maqsadi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar va tayyorgarligi.

2-mavzu: Jismoniy tarbiya yo'riqchisining kompetensiyasi va modeli

Reja:

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati

2.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining tayanch kompetensiyalari va rivojlantirish yo'llari

Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati Jismoniy tarbiya yo'riqchisining tayanch kompetensiyalari. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining pedagogik kompetentligini rivojlantirish yo'llari. Mashg'ulotlar jarayoni sifatini oshirishda kompetensiyasi turlari. Kasbiy kompetensiya modeli.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha

2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari

Jismoniy tarbiya yo'riqchisining bolalar bilan mashg'ulotlar jarayonida kompetensiyaviy yondashuvlari. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari (Yakka va guruhlarda ishlash, "Venn" diagrammasi, "Klaster", "Keys-stadi")

4-mavzu: "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida qo'yilgan kompetensiyaviy talablar

Reja:

4.1. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasidagi kompetensiyalari

4.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining yosh xususiyatlariga doir mashg'ulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mohorati

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasida qo'yilgan kompetensiyaviy talablar. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining yosh xususiyatlariga doir mashg'ulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mohorati. Sog'lom bola shaxsni shakllantirishda tarbiya turlari va usullaridan samarali foydalanish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T. O'zbekiston, 2023-yil.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi, “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, PQ-4312-son Qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi, “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-79-son Farmoni
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi, “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-may dagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 391-son Qarori.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi, “Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi, 626-son Qarori
- 8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyul dagi “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 355-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) . dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2019. – 61 b.
2. Asqarova O‘.M. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: “Talqin”, 2008. – 288 b.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.-279 b.
5. Mavlonova R.A. , Rahmonqulova N.H. , Matnazarova K.O. , Shirinov M.K. , Hafizov S. .Umumiy pedagogika – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 528 b.
6. Munavvarov A.Q. “Pedagogika” - T.: O‘qituvchi, 1996. - 200b.
7. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
8. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013.
9. Tursunaliyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o‘qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo‘llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press T, 2019 .- 92 b.
10. Ямалетдинова Г. А. Педагогика физической культуры и спорта: курс лекций: – Екатеринбург: Изд во Урал. ун-та, 2014. - 244 с.
11. Yuldasheva N.E. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishning tashkiliy –metodik asoslari . O‘quv qo‘llanma. T.2023

Elektron ta‘lim resurslari

1. <http://edu.uz/>
2. <http://eduportal.uz/>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://minsport.uz/ru>
5. <http://sportedu.uz/>
6. <http://ziyonet.uz/>

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida o‘qitish metodlari markaziy o‘rin egallaydi.

An’anaviy mashg‘ulot shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun mashg‘ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

“KEYS-STADI” METODI

«Keys-stadi» — inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari:

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|--|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshiriqni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

“CHAYNVORD” METODI

“Chaynvord” metodi- ta'lim oluvchilarning bilimlarini charxlashga qaratilgandir. Ushbu metoddan yangi mavzuni o'tishdan oldin ta'lim oluvchilarning birlamchi bilimlarini aniqlash va faollashtirish maqsadida, yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida ishlatiladi.

Metodning amalga oshirishi: Ta'lim oluvchilar raqamli kartochkalar yordamida 4-5 ta kichik guruhlariga bo'lib olinadi. Har bir kichik guruhga oldindan tayyorlangan chaynvord tuzilgan kartochka-vazifalar tarqatiladi. Metoddan asosiy maqsad berilgan vazifani qaysi guruh tez va to'g'ri bajarish va bilimlarini aniqlashdir. Chaynvord - kartochkaning chap tomonida savollar berilgan bo'lib, o'ng tomoniga esa savollarga javob yozilishi kerak.

Yozish sharti qo'yidagicha: birinchi savol javobining oxirgi harfi ikkinchi savol javobining bosh harfidan boshlanishi kerak. Yozish shartlari yuqorida berilgan shartlar asosida bajariladi.

To‘g‘ri javoblar soniga qarab berilgan vazifalar baholash mezonlari asosida baholaniladi.

Mazkur metod qo‘llanilganda ta‘lim oluvchilarning faolligi oshadi, mavzuga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi hamda o‘z bilimlarini baholash imkoniyati bo‘ladi. Ushbu metodni yakka tartibda, juftlikda va kichik guruhlarda amalga oshirish mumkin.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Namuna: Tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishida va o‘qitishida differensial yondashuvning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | |
|--|---|
| <p>Strengths- kuchli. Tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishida va o‘qitishida differensial yondashuvning kuchli tomonlari Tarbiyalanuvchilarning o‘zlashtirishini yaxshilash Ta‘limga moslashishdagi qiyinchiliklarni aniqlash</p> | <p>Opportunities-imkoniyat. Tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishida va o‘qitishida differensial yondashuvning imkoniyatlari (ichki) Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik ketma ket ro‘y berganda muvaffaqiyatga mubolag‘ali bahoning berilishi</p> |
| <p>Weakness- kuchsiz. Tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishida va o‘qitishida differensial yondashuvning kuchsiz tomonlari. Biror topshiriqni bajarishda muvaffaqiyatsizlik ro‘y berganda unga qiziqishning ko‘pincha kamayishi.</p> | <p>Threats — To‘siqlar. (tashqi) Vaqt tanqisligi sharoitida muammoli mazmundagi topshiriqni bajarishda ish samaradorligi oda</p> |

“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va

mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda jismoniy tarbiya yo‘riqchisi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va ta’lim oluvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.


4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Venn” diagrammasi metodi



Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi; navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar; juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**1-Mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi
faoliyatining maqsad va vazifalari.
Nazariy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.**

| | |
|--|---|
| O'quv soati: 2 soat | Tinglovchilar soni: 20-25 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli: | Nazariy mashg'ulot |
| Ma'ruza rejasi: | <p>1.1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari, huquq va majburiyatlari.</p> <p>1.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar va tayyorgarligi.</p> |
| • O'quv mashg'ulotining maqsadi: | Nazariy mashg'ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati fanining maqsad va vazifalari, ushbu fanning fanlararo aloqadorligi, jismoniy tarbiya yo'riqchilarining vazifalari, huquq va majburiyatlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish. |
| • Pedagogik vazifalar: – jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyatining huquq va majburiyatlarini o'rgatish orqali zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodologik bilimlarni shakllantirish; – jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yilgan didaktik talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish; | • O'quv natijalari: • Nazariy mashg'ulotdan so'ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati fanining predmetini; 2. jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati metodlarini; 3. jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahoratining nazariy asoslarini; |
| • Ta'lim metodlari: | • Ma'ruza, suhbat, munozara, tezkor so'rov. |
| • Ta'lim vositalari: | • Ma'ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproyektor, prezentatsiyalar. |
| • Ta'lim shakli: | • Frontal, guruhlarda ishlash. |
| • O'qitish shart-sharoitlari: | • Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya. |
| • Monitoring va baholash. | • Nazorat savollari. |

**1-MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISI FAOLIYATINING MAQSAD VA
VAZIFALARI.**

Reja:

1.1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari, huquq va majburiyatlari.

1.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar va tayyorgarligi.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari. Kasbiy faoliyatning huquq va majburiyatlari maqsadi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining o'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar va tayyorgarligi.

1.1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari, huquq va majburiyatlari.

Komil insonni tarbiyalash barcha davrlarda ham insoniyatning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Bu mas'uliyatli vazifani bajarishda, ayniqsa, jamiyat ziyoli insonlarining, jumladan ilg'or tajribali, ijodkor va mohir o'qituvchilarning o'ni beqiyosdir. Darhaqiqat o'qituvchilik kasbi sirlarini o'rganish, har bir pedagogik vaziyatlarni mohirona hal etish, samarali pedagogik faoliyat yuritish, bir so'z bilan aytganda mohir pedagog darajasiga etish uchun katta tayyorgarlik talab etiladi. Pedagoglik, ya'ni o'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra individual xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy hayotda har bir pedagogdan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, ya'ni mohirlikni talab etadi. Mohirlik mutaxassislik, kasb bilan hamohang bo'lib, o'qituvchining uz kasbiy faoliyatida mahorat bilan ish tutishni talab etadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizda ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinib yangilanmoqda. Bu ishlarning barchasidan davlatimizning yagona maqsadi — maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor- o'qituvchilar va ilmiy –ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishga harakat qilinmoqda.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida keng ko'lamlı ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida Bu borada so'ngi 5 yilda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning shaxsiy tashabbuslari bilan maktabgacha ta'lim sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bularning barchasi bolalar va tarbiyachi pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini tizimli, manzilli, maqsadli yaxshilashga qaratilgan. Bularga misol qilib, 2017 yildagi MTni rivojlantirish, 2018 yil Ilk qadam davlat o'quv dasturi, 2019 yil Maktabgacha ta'lim tarbiya to'g'risidagi “ Qonun, 11-bob, 58 modda (2019 yil 16

dekabr, O‘RQ -595-son) “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrda 802-son, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022 yil 4 fevral O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilinishi. EMIS elektron tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

Konsepsiyaga ko‘ra 2025-yilga borib, 3-7 yoshdagi bolalarni 74,5 foizini maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olishni ko‘zda tutilmoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish darajasi 28 foizdan 60 foizga yetkazilib, bog‘chalar soni 3 barobarga ko‘payib, 14,2 mingtadan oshirishga erishildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tib kelayotgan yosh avlodning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, rivojlantirish uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish, ularni muntazam o‘tkazib borish bolalarni jismoniy tomondan rivojlantirish va sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish asosiy vazifalardan biridir.

Bolalar o‘z yoshlariga mos bo‘lgan harakatli, shu jumladan milliy o‘yinlar nomlarini, qoidalarini bilishi va ularda faol ishtirok eta olishi, yugurish va sakrash, yoshiga mos holda belgilangan me‘yorlarni bajarishi, saflanishi, chaqqon harakat qilish, chiniqtirish mashqlarini bajarish kabilarga o‘rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya mazmunining asosini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining lavozim vazifalari: (Maktabgacha ta’lim vazirining 2021-yil 30-dekabrda 255-son buyrug‘iga ILOVA)

Maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo‘riqchisi lavozimining malaka tavsiflari

- “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish;
- bolalarni jismoniy rivojlantirish bo‘yicha o‘quv mavzu rejalarini tuzish;
- guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini o‘tkazishda tarbiyachilar bilan hamkorlikda ishlash;
- tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (ularning o‘rnini bosadigan shaxslar) tomonidan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, musobaqalar, sog‘lomlashtirish kunlari va boshqa dam olish tadbirlarining tashkil etilishini va o‘tkazilishini ta’minlash;
- tashkilot rahbariyatiga maktabgacha ta’lim tashkilotining sport jihozlari bilan ta’minlash bo‘yicha ehtiyojini kiritish;
- jismoniy zaifligi mavjud tarbiyalanuvchilar uchun jismoniy rehabilitatsiya choralari ko‘rilishini tashkil etish;

- bolalarning sogʻlom turmush tarzi asoslarini shakllantirishga hissa qoʻshish;
- tarbiyalanuvchilarning ota-onalari (ularning oʻrnini bosadigan shaxslar) orasida turlisport tadbirlari va musobaqalarni oʻtkazish;
- tarbiyalanuvchilarning yoshi, tayyorgarligi, shaxsiy va psixofizik xususiyatlari, manfaatlariga asoslangan holda mashgʻulotlarning mazmunini belgilash;
- tarbiyalanuvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishda, tana aʼzolarining harakatlarini toʻgʻri rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya mashgʻulotlari jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va sogʻligʻi xavfsizligini taʼminlash;
- mavjud sport maydonchalari, zallari va jihozlari holati, sanitariya meʼyorlariga mosligini, ishlatilishini va saqlanishini taʼminlash;
- tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sogʻligʻini saqlash holatini nazorat qilish;
- bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar boʻyicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda taʼlim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish boʻyicha yakuniy kuzatuvlarni oʻtkazilganligini nazorat qilib borish;
- bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirishda ota-onalar uchun metodik va maslahatlar berib borish;
- pedagogik va metodik kengashlarda, umumiy ishlab chiqarish yigʻilishlarida faol ishtirok etish;
- odob-axloq, va jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongʻin xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish.

1. Bilishi lozim:

- “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, oʻquv-uslubiy qoʻllanmalarini amaliyotga tatbiq etish yoʻllarini;
- maktabgacha taʼlim sohasida amaldagi jismoniy tarbiyaga oid normativ-huquqiy, metodik va boshqa hujjatlarni;
- maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogika va psixologiyasi, fiziologiyasi asoslari hamda bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariya va amaliyoti asoslarini;
- odob-axloq, va jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongʻin xavfsizligi qoidalarini, bolalar hayoti

va sogʻligʻini muhofaza qilish yoʻriqnomasini.

Malaka talablari: oʻz yoʻnalishi boʻyicha kamida oʻrta maxsus maʼlumot, amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh qalblar kamolotining meʼmoridir. U yoshlarni gʻoyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini oʻrgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallashlariga koʻmaklashishi va jamiyat uchun muhim boʻlgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chogʻlamogʻi darkor. Ana shu masʼuliyat oʻqituvchidan oʻz kasbining mohir ustasi boʻlishni, bola — yoshlarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, isteʼdodi, eʼtiqodi va amaliy koʻnikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yoʻllarini izlab topadigan kasb egasi boʻlishni talab etadi. Pedagog – taʼlim – tarbiya jarayonida maxsus maʼlumot boʻyicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod oʻz sohasi boʻyicha oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalarini quyi avlodga oʻrgatuvchi ijodkor shaxsdir. **Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuning 44 — moddasi** *“Pedagogik faoliyat shugʻullanish huquqi” boʻlib unda “Tegishli maʼlumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega boʻlgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish huquqiga ega.”* – deb eʼtirof etilgan.

Jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yigʻindisidan iborat boʻlgan qismi;

Jismoniy tarbiyalash — yuksak madaniyatga ega boʻlgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sogʻlom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon; Jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi — oʻz tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri oʻtkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda oʻtkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan taʼminlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

Jismoniy tarbiya instruktori maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasida boʻlib, xilma-xil oʻyin, oʻquv va mehnat faoliyatini amalga oshiradi. «Salomatlik» tushunchasining tarkibiy qismi boʻlgan jismoniy va ruhiy beshikastlik bolaning oʻsish va rivojlanishining normal kechishini nazarda tutadi. Bolalarning gigiyenik va jismoniy sogʻlomliklari koʻp jihatdan sogʻliqni saqlash va xalq taʼlimi tizimlarining hamkorlikdagi intilishlariga bogʻliq boʻladi.

Jismoniy tarbiya tizimining barcha boʻgʻinlaridagi yagona maqsad: bolalarni hayotga, mehnat va Vatan himoyasiga tayyorlash ishini amalga oshirishdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari, ularni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda berilgandir.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalari mavjuddir.

1. Sogʻlomlashtirish vazifalari.
2. Taʼlimiy vazifalar.
3. Tarbiyaviy vazifalar.

Sogʻlomlashtirish vazifalari. Bola organizmi rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda sogʻlomlashtirish vazifalari quyidagilardir:

- suyaklarning toʻgʻri va oʻz vaqtida qotishiga, umurtqa egiklarining shakllanishiga, tovon ravoqlarining rivojlanishiga, boʻgʻim-bogʻlam apparatining mustahkamlanishiga yordam berish;
- tana qismlarining (proporsiyalar) toʻgʻri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar oʻsishi va massasini tartibga solishga yordam berish;
- barcha mushaklar guruhini rivojlantirish (tana, oyoq, qoʻl va yelka kamari, panja, barmoqlar, tovon, boʻyin, koʻz, ichki organlar,
- yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa mushaklar);
- koʻproq zaif rivojlangan bukuvchi mushaklar guruhining rivojlanishiga eʼtibor qaratish lozim.
- yurak-qon tomirlari va nafas olish tizimlari faoliyatini takomillashtirishga yordam berish, yurakka qon oqishini kuchaytirish, uning qisqarish ritmini yaxshilash va toʻsatdan oʻzgaradigan yuklamaga moslashish qobiliyatini rivojlantirish;

Taʼlimiy vazifalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi taʼlimiy vazifalar hal etiladi:

- harakat koʻnikma va malakalarini shakllantirish;
- jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, koʻz bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilikni oʻstirish;
- toʻgʻri qaddi-qomat, gigiyena koʻnikmalarini tarbiyalash;
- jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni oʻzlashtirish.

Tarbiyaviy vazifalar. Jismoniy tarbiya jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning katta imkoniyatlari mavjud.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, koʻngilchanlik) va axloqiy fazilat (halollik, oʻrtoqlik hissi, oʻzaro yordam, topshiriqni masʼuliyat bilan bajarish)larni tarbiyalash, irodaviy fazilatlar (botirlik, qatʼiylilik, oʻz kuchiga ishonch, chidamlilik)ni namoyon qilish uchun sharoit yaratadi.

Ommaviy sport — sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashgʻulotlar, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini oʻtkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalash, sogʻlomlashtirish, kamol toptirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlariga jalb etishga doir qismi;

Sport tadbirlari - sport musobaqalarini, oʻquv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik koʻrish boʻyicha boshqa tadbirlarni oʻz ichiga oladigan tadbirlar;

Sport turi — jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi boʻlib, u insonning sport musobaqalariga oʻziga xos tarzda tayyorgarlik koʻrishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini oʻtkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalarga, nizomga (reglamentga) ega boʻladi;

Havaskorlik sporti — sportning aholini ixtiyoriylik asosida ommaviy sportga jalb qilish orqali odamlar sogʻligʻini mustahkamlashga qaratilgan qismi;

Sport — odamlarning muayyan qoidalar boʻyicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat boʻlgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik koʻrish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar oʻrtasida yuzaga keladigan munosabatlar;


Trener - trenerlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun ruxsatnomaga ega boʻlgan hamda oʻquv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini oʻtkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs.”- deb eʼtirof etilgan. (Trener – inglizcha train – oʻzbek tilida tarbiyalovchi, oʻrgatuvchi maʼnolarini anglatadi.)

Pedagogika mashgʻulotliklarida yosh avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari etib, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyalar bilan bir qatorda “jismoniy tarbiyaga” alohida eʼtibor qaratilgan. “jismoniy tarbiya” — yosh avlodni jismoniy jihatdan sogʻlom oʻsishlarini, baquvvat boʻlishlarini, aqliy, jismoniy mehnatga shuningdek Vatan himoyasi uchun qoʻrqmas, jasur, harbiy bilimlardan biladigan qilib tayyorlash oliy maqsadidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.

Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui oʻrganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi taʼlimoti tashkil etadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi, shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:



Sog'lomlashtiruvchi vazifalar. Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko'rishini ta'minlash.

Ta'limiy vazifalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xos bo'lgan o'ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o'zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta'limiy vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chamalash)ni o'stirish, to'g'ri qaddi – qomat, gigiyena ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish.

Boladagi harakat ko'nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k) nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarini egallash bilan bog'liq bo'lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mashg'ulotlarning foydasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o'tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o'yinlar va hokazolar haqidagi tushuncha va bilimlarni berish muhimdir.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo'nalishini (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga), to'la aylanish, fizkultura asboblarining nomi va qay maqsadda ishlatilishi, ularni asrash va tutish, kiyim – kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilishlari kerak.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Bolalarda sport mashgʻulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, koʻngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, oʻrtoqlik hissi, oʻzaro yordam), jamoada shugʻullanish malakasi, fizkultura asboblari ehtiyot qilish, topshiriqni masʻuliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlik, qatʻiylilik, oʻz kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Jadal oʻsish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining oʻziga xos xususiyatidir.

Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi hali tugallanmagan boʻladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik boʻladi. Shu munosabat bilan quyidagi sogʻlomlashtirish vazifalari birinchi oʻringa qoʻyiladi:

- 1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit taʼsiriga qarshiligini oshirish;
- 2) organizmning barcha sistemalarini toʻgʻri va oʻz vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish toʻgʻri qaddi — qomatni uygʻun jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga qudratli rivojlanishni taʼminlovchi xususiyatlar ham xosdir. Bu barcha toʻqimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda almashinuvi jarayonlarining jadalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning oʻzgarishiga, jismoniy zoʻriqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U oʻziga tushunarli bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirishga idroki baland boʻladi, bu esa bir qancha taʼlimiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

1) jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish va madaniy-gigienik koʻnikmalarni oʻzlashtirish bilan bogʻliq dastlabki bilimlarni shakllantirish;

2) kelgusida sport bilan shugʻullanish uchun asos boʻlib hizmat qiladigan hayotiy zarur harakatlar malaka va koʻnikmalarini shakllantirish.

3) shaxsiy va ijtimoiy gigiena koʻnikmalarini singdirish;

Jismoniy mashqlar bolalarning to‘laqonli aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma’naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat’iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.



Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga badanni ozoda tutishga, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o‘zaro madaniy munosabatlariga doir ko‘nikmalar kiradi.

Bolalarda madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oilada harakatlar va topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.
2. O‘zlashtirilayotgan madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni qat’iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o‘rgatish.
3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.
4. Bolalarni madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlarini nazorat qilib borish.
5. Bolalarni kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so‘zsiz bajarishga o‘rgatish.

Mashhur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: «Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi — go‘zallikdir» degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog‘lom, baquvvat, iymon-e’tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki,

bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino «Badan tarbiya – sog‘likni saqlashda ulug‘vor usuldir» deydi, bu fikr «Kimki qilsa harakat – sog‘ligida barakat» degan naqli eslatadi.

Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyozat deb atashgan. Ibn Sino «Tibbiy doston» asarida riyozat – badan tarbiyasi haqida to‘xtalib, uning bir necha xillari bo‘lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o‘rtacha shug‘ullanish sog‘liqqa foydali ekanligini, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig‘ilishiga sabab bo‘lishini alohida uqtirib o‘tadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta’riflaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur». Suqrot hakim esa bunday deydi: «Gimnastika yordami ila men badanimga muvozanatini to‘g‘rilab olaman».

Jismoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta’rif berilganda, «Badantarbiya», «jismoniy madaniyat», «jismoniy kamolot», «jismoniy rivojlanish» degan asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

«*Jismoniy madaniyat*» tushunchasi quyidagilardan iborat: 1) mehnat va turmushdagi ko‘nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejimga doir odatlarni (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va hokazolar)ni; 2) tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirish (havo, quyosh va suv)ni; 3) jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o‘zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma’nodagi antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlar: bo‘yi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pka sig‘imi, qaddi — qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari- muhit va organizmning birligi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga muntazam ravishda o‘tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o‘zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Bolaga ta’lim – tarbiya berishda amalga oshiriladigan har qanday ishning muvaffaqiyatli bajarilishi bolaning sog‘lig‘iga bog‘liq. Shuning uchun ko‘pchilik

pedagogik ishlar bolaning jismoniy imkoniyati va sogʻligʻini eʼtiborga olgan holda amalga oshiriladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi uning har tomonlama uygʻun rivojlangan inson boʻlib oʻsishida muhim ahamiyatga ega. Sogʻlom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori boʻladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida taʼlim-tarbiya jarayonlarini ilmiy — metodik asoslarda tashkil etish, bolalar faolligini taʼminlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida taʼlim jarayonlarning sifat va samaradorligini taʼminlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega boʻlgan, oʻzini-oʻzi va oʻz faoliyatini oʻzi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va maʼnaviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega boʻlgan, shuningdek, axborotlar toʻplash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda taʼlim oluvchilar faolligini taʼminlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va bolalar faolligiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida taʼlim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan koʻrish koʻnikmalariga ega boʻlgan hamda taʼlim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini taʼminlash yoʻnalishida zaruriy bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlgan pedagogni **kompetentli pedagog** deyishimiz mumkin.

Zamonaviy talablar jismoniy tarbiya yoʻriqchisidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanishi, oʻziga turli shart – sharoitlar yaratishi, innovatsion yondashuvlarga oid ilmiy – metodik ishlanmalarni tegishli tarmoqlardan izlash, foydalanish oʻqituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga koʻmaklashadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan umumiy oʻrta taʼlimga qaratilayotgan eʼtibor barcha pedagoglarning oʻz ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda oʻquv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy — metodik asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, taʼlim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qoʻshilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa oʻz navbatida umumiy oʻrta taʼlim muassasasi pedagoglari oldiga yanada yangi vazifalar qoʻyadi.

1.2 Jismoniy tarbiya yoʻriqchisining pedagogik- psixologik tayyorgarligiga qoʻyiladigan talablar:

1. Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish;
2. Pedagogik – psixologik ziyraklik va kuzatuvchanlik ;
3. Pedagogik takt;
4. Pedagogik tasavvur;

5. Tashkilotchilik qobiliyati;
6. Haqqoniylik;
7. Dilkashlik;
8. Talabchanlik;
9. Qat'iylik va maqsadga intilish;
10. Vazminlik;
11. O'zini tuta bilish;
12. Kasbiy layoqatlik.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;

Ilmiy – metodik salohiyat, ma'naviy ehtiyoj va intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish, bilim, ko'nikma va malakasini hamda pedagogik mahoratini oshirishga intilish kiradi. Quyidagilar o'qituvchining pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy (fundamental) talablar hisoblanadi:

o'qitish mahorati;

tarbiyalash mahorati;

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lishi bilan bir qatorda pedagogik, psixologik tayyorgarlik ham yetarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Bilish qobiliyati — o'quv predmetining tegishli sohalariga oid bo'lib, bunda jismoniy tarbiya yo'riqchisi jismoniy tarbiya o'quv predmetini o'quv kursini DTS hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq bilishi, unga qiziqishi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajara olishi kerak.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o'quv va mashq qoidalarini bolalarga tushunarli qilib bayon va amaliy ko'rsata olishi bolalarda mustaqil fikrlashga qiziqish uyg'otishdir.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati- bolaning, ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, bola shaxsini va uning vaqtinchalik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

4. Nutq qobiliyati — nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu jismoniy tarbiya o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his – hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

5. Tashkilotchilik qobiliyati — bolalar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishini a o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutiladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati — bolalarga bevosita emotsional- irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina

emas, balki o'qituvchining o'quv predmetini yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va boshqa ijobiy xislatlar. Bolalar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini juda hurmat qiladilar. O'qituvchining bo'shligi, sabotsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati – bolalar bilan pedagogik nuqtai nazardan samimiy, do'stona, samarali munosabatlar o'rnatish, pedagogik muloqot madaniyatini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, bolaning kelgusida qanday mutaxassis bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday ijobiy fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan bashorat qila olishida ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, ta'lim — tarbiyaning qudratiga bog'liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – jismoniy tarbiya yo'riqchisi uchun diqqatning barcha xususiyatlari — hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilinishi, safarbarligi kabilari bilan izohlanadi. Qobiliyatli, tajribali jismoniy tarbiya yo'riqchisi saboqni bayon qilish mazmuni va shaklini, o'z fikrini (yoki bolaning fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha bolalarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsiz — intizomsizlik hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z xatti — harakatlarini ham boshqarib boradi.

Mashg'ulot — maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning asosiy shakli. Mashg'ulot ta'lim massasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot — pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigiyenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt

ajratilgan. Mashgʻulot tarbiyachi rahbarligida oʻtkaziladi, tarbiyachi mashgʻulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashgʻulotlarini tashkil etadi. Oʻquv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashgʻulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashgʻulot orqali bolalar oʻquv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan taʼlim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol taʼsir etishadi, oʻz tashabbusi, topagʻonligini namoyon qilish imkoniyati tugʻiladi. Bolalar oldiga umumiy zoʻr berishning talab etuvchi vazifa qoʻyilganda birgalikda qaygʻurishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-oʻyinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, oʻqishda paydo boʻlgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan doʻstona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashgʻulotda taʼlim berish orqali bolalarda maktabdagi oʻqishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, oʻzini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi toʻgʻri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab taʼlimiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlangʻich sinflarda dastur materialni yaxshi oʻzlashtirib olishlarini taʼminlovchi bilim va malakalar mashgʻulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashgʻulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish, malakasi tarkib topshiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy gʻoyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta eʼtibor beriladi.

Mashgʻulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashgʻulot bolalarning yosh va oʻziga xos xususiyatlarini eʼtiborga olib maʼlum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha taʼlim muassasasi taʼlim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida oʻtkaziladigan mashgʻulotlar soni va vaqti belgilab qoʻyilgan.

Mashgʻulotning tuzilishi: Mashgʻulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashgʻulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta oʻylanib olinishi kerak. Bolalar oʻquv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachining eʼtibor bilan tinglab, oʻyindan mashgʻulotga osonlik bilan oʻtadilar.

Bolalarni uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni yigʻib, ularning mashgʻulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi koʻrinishi, joy-joyiga toʻgʻri oʻtirishganligi, diqqatini toʻplaganini sinab koʻradi.

Mashg‘ulot muvaffaqiyatli o‘tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg‘otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo‘llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo‘g‘irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», — deb mashg‘ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to‘g‘risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg‘ulot mana shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg‘ulot bo‘lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo‘yadi. Bu bolalarning bo‘lajak mashg‘ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o‘tadi va ularga rasmlarni ko‘rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko‘rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo‘r qiziqish bilan kutishadi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Lug‘aviy jihatdan “competere” tushunchasi qanday ma’noni ifodalaydi?
2. O‘zini ijtimoiy kasbiy rivojlantira olish deganimiz nima?
3. Shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi qanday nomlanadi?
4. Favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Ushbu malakalarga egalikni ifodalovchi kompetentlikka xos sifat nima deb nomlanadi?
5. Kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish pedagogga xos kompetentlikning qaysi sifatini ifodalaydi?
6. Izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish negizida pedagogga xos qanday kompetentlik aks etadi?

7. Shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka, mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi qanday nomlanadi?
8. Biror bir ish eski faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi?
9. Individdning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati qanday nomlanadi?
10. Nutq texnikasi bo'yicha ishlab chiqilgan mashqlar turkumiga qaysilar kiradi?

**2-Mavzu. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining kompetensiyasi va modeli.
Nazariy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.**

| | |
|---|--|
| O'quv soati: 2 soat | Tinglovchilar soni: 20-25 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli: | Nazariy mashg'ulot |
| Ma'ruza rejasi: | 2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati. 2.2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining tayanch kompetensiyalari va rivojlantirish yo'llari. |
| • O'quv mashg'ulotining maqsadi: | Nazariy mashg'ulotning maqsadi tinglovchilarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalari, jismoniy tarbiya yo'riqchisining kompetentlik xususiyatlariga oid nazariy — metodologik asoslari bilan qurollantirish, jismoniy tarbiya yo'riqchisining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish |

| | |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> • Pedagogik vazifalar: – tinglovchilar zamonaviy pedagogik metodikalarni o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; – kichik guruhlarda ishlay olish qobiliyatlarini shakllantirish; – tinglovchilarning o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida ularning shaxsiy, ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilishga o‘rgatish; – mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish; | <ul style="list-style-type: none"> • O‘quv natijalari: • Nazariy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. jismoniy tarbiya yo‘riqchisining professional kompetentligi tushunchasi va mohiyatini; 2. jismoniy tarbiya yo‘riqchisining tayanch kompetensiyalarini; 3. kompetensiya turlarini; 4. kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarni; |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim metodlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim vositalari: | <ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproyektor, prezentatsiyalar. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim shakli: | <ul style="list-style-type: none"> • Frontal, guruhlarda ishlash. |
| <ul style="list-style-type: none"> • O‘qitish shart-sharoitlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Monitoring va baholash. | <ul style="list-style-type: none"> • Nazorat savollari. |

2-MAVZU. JISMONIY TARBIYA YO‘RIQCHISINING KOMPETENSIYASI VA MODELI

Reja:

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati

2.2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining tayanch kompetensiyalari va rivojlantirish yo‘llari.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining tayanch kompetensiyalari. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining pedagogik kompetentligini rivojlantirish yo‘llari. Mashg‘ulotlar jarayoni sifatini oshirishda kompetensiya turlari. Kasbiy kompetensiya modeli.

2.1. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

Professional kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Professional kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Professional kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Professional kompetensiyaga:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- Bolalarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;

- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Professional kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:
 — murakkab jarayonlarda; — noaniq vazifalarni bajarishda; — bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; — kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: — o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; — yangi axborotlarni o'zlashtiradi; — davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; — ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

2.1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining tayanch kompetensiyalari va rivojlantirish yo'llari.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Ta'limiy kompetensiyalar ikki guruhdan iborat:

tayanch(umumiy)-turli xil holatlarda qo'llash mumkin.

maxsus (fanga oid)-kasbiy faoliyatda bajarish lozim bo'lgan harakatlar.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. Umummadaniy kompetensiyalar;

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

7) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

8) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

9) Ekstremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Maxsus kompetensiya:

- Faniga doir maxsus metodlarni bilish;
- Bolalar ehtiyojini bilish ;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish;

Kasbiy kompetensiya modeli jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan

Kasbiy yo'nalishga tayyorgarligi:

Kasbiy ko'nikma va malaka:

Kasbiy bilim va tushunchalarni bilishni talab etadi.

So'nggi yillarda pedagogik mahoratning kategoriyalariga yangicha yondashuvlar vujudga kelmoqda. Jumladan pedagogik kompetentlilik pedagogik mahoratning yangi kategoriyasi va eng asosiysi sifatida tan olinmoqda. Ushbu kategoriyaning o'ziga xos jihatlari ayniqsa pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxojayevaning ilmiy ishlarida aniq va ravon tarzda yoritib berilgan. Ularning ta'kidlashicha **pedagogik kompetentlilik** — bu qabul qilingan me'yorlar,

standartlar va talablarga mos tarzda pedagogik funksiyalarni bajarishga qobiliyati va tayyorgarligini belgilovchi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy tavsifidir

Pedagogik faoliyatning maqsadi asosan jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni uning faoliyati jamiyatning kelajagi bo'lmish yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilmog'i lozim.

Pedagogik mahoratning obyekti — bu insondir. Inson jamiyatning faol ishtirokchisi bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega va bu o'qituvchidan har bir shaxsga o'ziga xos yondashishni talab etadi. Shuningdek, jamiyat rivoji bilan inson ongi va tafakkuri ham o'zgarib boradi. U esa o'qituvchidan muntazam ijodiy izlanishni talab etadi.

Pedagogik faoliyatning subyekti — bu o'qituvchi, ota-onalar va jamoadir. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi shaxsi, uning bilim va ko'nikmalari tarbiyalanuvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchidan o'zini ma'naviy jihatdan boyitib borishini talab etadi.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisining asosiy tarbiya quroli esa uning mehnati, muloqot madaniyati, o'qish, o'yin kabi turli xil faoliyatidir.

Haqiqiy jismoniy tarbiya yo'riqchisi pedagogik faoliyatning yuqoridagi komponentlaridan qanday foydalanishni, ya'ni ta'lim-tarbiya maqsadini to'g'ri qo'yib, subyekt va obyektning yangi pedagogik texnologiyalar asosida faollashtiradi hamda shunga mos vositalarni to'g'ri tanlay va qo'llay oladi. Aynan shundagina o'qituvchining kasbiy mahorati yuzaga chiqadi. Demak, o'qituvchining mahorati uning kasbiy pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishiga doir shaxsiy sifatlar majmui bilan belgilanadi.

Pedagogik mahorat - jismoniy tarbiya yo'riqchisi tarbiyachining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyiligi, nazokati va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z o'quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarligida, bola – yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahoratli jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarni o'zida tarkib toptirishi lozim.

Pedagoglik kasbining sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Yosh inson esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, bola bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu

o'qituvchidan pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon – e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob – axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyiligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o'qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda o'qituvchi-tarbiyachi(pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Pedagogik texnika – o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala – jismoniy tarbiya yo'riqchisi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim — tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi.

Pedagogik ijod – pedagogning mahorat pillapoyalaridan ko'tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka elituvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni anglatadi. O'z navbatida bu sohada o'qituvchining pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda o'qituvchining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o'qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmatini, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, o'qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yiligi, to'g'riligini anglatadi.

Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt)– o'qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

Insonparvarlik — insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'z g'alalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

Samimiylilik- atrofda kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat Vatanni sevish- ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Fidoiylik. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish.

Pedagoglar har tomonlama ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining tashqi qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim. Tashqi qiyofa orqali insonlarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish mashg'ulot jarayonini samaradorligini oshiradi. Pedagoglarda faqatgina iste'dodining o'zi yetarli emas, balki bolalarga ideal shaxs sifatida tasavvur qila olishni ham bilishi kerak.

Bularga asosan:

- didaktik malakalar
- tashkilotchilik malakalar
- konstruktiv malakalar,
- kommunikativ malakalar

Didaktik malaka (Didaktika-ta'lim va uning maqsadi, mazmuni, shuningdek ta'lim metodlari, vositalari va uni tashkil etish haqidagi fandi) deb o'qituvchining bilim va malakalarini eng samarador metodlar va vositalar bilan bolalarga etkazishi tushuniladi.

Konstruktiv malaka. Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonni mohirlik bilan tashkil eta olish. Mashg'ulotda bolalarga bilim berib, malaka va qobiliyatlarini shakllantirishning eng oson va qulay yo'llarini topa olish.

Kommunikativ malaka. Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonda bola-bola, o'qituvchi-jismoniy tarbiya yo'riqchisi muloqotini ijobiy tashkil eta olish. Pedagogik muloqot yordamida bolalarga zarur bilim va malakalarni Bera olish qobiliyati.

Demak, o'qituvchining pedagogik texnikasi quyidagi (komponentlar)lar bilan tavsiflanadi:

- o'qituvchining o'z pedagogik texnikasini rivojlantirib borishi,
- emotsional –hissiy holatlarini boshqarishi,
- pedagogik hamkorlikni modellashtirish,
- pedagogik hamkorlikni boshqarish,
- ijtimoiy pertseptsiya,

Pedagogik texnikaning asosini esa pedagogik texnikani ongli ravishda o'zlashtirish asnosida pedagogik faoliyat jarayonida uning elementlarini bilvosita (avtomatik – reflektiv tarzda) qo'llay olish tamoyili tashkil etadi.

2-Mavzu bo'yicha savollar

1. Olimlarning fikricha pedagogik faoliyatda nechta qobiliyat yetakchilik qiladi?

2. Qaysi faoliyatda jismoniy tarbiya yo'riqchisi atrofdegilarni va o'zligini chuqur va har tomonlama anglashi nazarda tutiladi?
3. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bolalar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni qanday bartaraf etishi uchun?
4. O'qituvchi-tarbiyachining pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko'rsatadigan jihatlarini tanlash tizimi nima deyiladi?
5. Bolalar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyati nima deb nomlanadi?
6. Bolaga "pedagogik ta'sir ko'rsatish" deganda qanday g'oya tushuniladi?
7. «Kompetensiya» so'zi qaysi tildan olingan?
8. Kasbiy kompetentlikni o'ziga xos jihatlarini qaysi olimlar o'rgangan?
9. Pedagog xodimlarning huquq, burchlari va vazifalari qaysi hujjatlar asosida belgilanadi?
10. O'quv mashg'ulotlari jarayonida jismoniy tarbiya yo'riqchilari nimalarga amal qilinishi lozim?

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI



3-Mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv.

Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi.

| | |
|---|--|
| O'quv soati: 2 soat | Tinglovchilar soni: 20-25 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli: | Amaliy mashg'ulot |
| Ma'ruza rejasi: | <p>3.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha.</p> <p>3.2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari.</p> |
| • O'quv mashg'ulotining maqsadi: | Amaliy mashg'ulotning didaktik maqsadi jismoniy tarbiya yo'riqchisining bolalar bilan mashg'ulotlar jarayonida kompetensiyaviy yondashuvlarini o'rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalari haqida umumiy bilimlarini shakllantirish. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlarini bo'yicha tushunchalar berish. |

| | |
|---|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • Pedagogik vazifalar: – tinglovchilar zamonaviy pedagogik metodikalarni o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; – kichik guruhlarda ishlay olish qobiliyatlarini shakllantirish; – jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining xususiy pedagogik kompetensiyalari, ularning mohiyati, kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida pedagogik faoliyatga kiritiladigan o‘zgartirishlar, shuningdek, jismoniy tarbiyaning vazifalarini o‘rgatish; – mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish; | <ul style="list-style-type: none"> • O‘quv natijalari: • Nazariy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. mashg‘ulot jarayonlarini boshqarishga qo‘yiladigan didaktik talablarni; 2. jismoniy tarbiya yo‘riqchisining tayanch kompetensiyalarini; 3. pedagogik mahoratining tarkibiy qismlarini; 4. kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlarini; |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim metodlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim vositalari: | <ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproektor, prezentatsiyalar. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim shakli: | <ul style="list-style-type: none"> • Frontal, guruhlarda ishlash. |
| <ul style="list-style-type: none"> • O‘qitish shart-sharoitlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |
| <ul style="list-style-type: none"> • Monitoring va baholash. | <ul style="list-style-type: none"> • Nazorat savollari. |

3-MAVZU. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.

Reja:

3.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha.

3.2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining bolalar bilan mashg‘ulotlar jarayonida kompetensiyaviy yondashuvlari. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari (Yakka va guruhlarda

ishlash, “Venn” diagrammasi, “Klaster”, “Keys-stadi”)

3.1. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalari haqida tushuncha.

Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi fan o‘qituvchilarining tayanch va xususiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etmoqda.

| № | O‘qituvchining xususiy pedagogik kompetensiyalari | Mohiyati | Kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida pedagogik faoliyatga kiritiladigan o‘zgartirishlar |
|----|---|---|--|
| 1. | Metodologik kompetensiya | O‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish jarayonini tashkil etishning didaktik asoslarini egallash | Kompetensiyaviy yondoshuvning kontseptual asoslarini egallash |
| 2. | Tashkilotchilik kompetensiyasi | O‘qitishning barcha shakllari: mashg‘ulot, mashg‘ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ta’lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish | O‘qitishning barcha shakllari: mashg‘ulot, mashg‘ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda texnik va innovatsion texnologiyalardan uyg‘un foydalangan holda maqsadga muvofiq tashkil etish |
| 3. | Loyihalash kompetensiyasi | Kompetensiyaviy yondashuvning kontseptual asoslari e’tiborga olingan holda ta’lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash | Texnik va innovatsion texnologiyalarning kontseptual asoslarini e’tiborga olgan holda o‘qitish jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash |
| 4. | Media kompetentlik | Mutaxassisligi bo‘yicha axborot to‘plash, ularni jamlash, qayta ishlash | Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va Internet materiallaridan uyg‘un foydalanish |

| | | | |
|----|---|--|---|
| 5. | Konstruktiv kompetensiyasi | O'quv materiallarining mantiqiy yo'nalishini e'tiborga olgan holda qayta ishlash | Kompetensiyaviy yondashuvning kontseptual asoslari e'tiborga olingan holda texnik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadida o'quv materiallariga ishlov berish |
| 6. | O'qitishning metodik va didaktik ta'minotini yaratish kompetensiyasi | O'qitishning barcha shakllari: mashg'ulot, mashg'ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishning metodik va didaktik ta'minotini yaratish | Bolalarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'qitishning barcha shakllari: mashg'ulot, mashg'ulotdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning metodik va didaktik ta'minotini yaratish |
| 7. | Ilg'or ish tajribalarni o'rganish va ommalashtirish kompetensiyasi | O'z pedagogik mahoratini orttirish maqsadida ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarni o'rganish va ommalashtirish yo'llarini bilish | O'zi o'qitadigan fani bo'yicha texnik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan metodik tavsiyalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish |


Kasbiy kompetensiya modeli



3.2. Maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodlari.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirish;
- bolalarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- bolalarni harakatning yangi turlariga o‘rgatish;
- ularning irodaviy sifatleri (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- bolalarning gigiyenik ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar (dadillik, qat’iyatlik, intizomlilik, mas’uliyatlik, jamoa bilan bo‘lish)ni tarbiyalash;
- bolalarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish;
- bolalarning sog‘lom va baquvvat bo‘lishlariga erishish.



Bolalarga ta'lim berish jarayonida jismoniy tarbiya yo'riqchisi har xil metodlardan, usullardan foydalanish:

| | | | |
|--------------------|----------------|---------------|--------------------|
| Ko'rgazmali | Og'zaki | Amaliy | O'yin metodlari |
| Kuzatish | Tushunish | Mashq | Didaktik o'yinlar |
| Ko'rsatish | Hikoya qilish | Mustaqil ish | Harakatli o'yinlar |
| TV dan foydalanish | So'zlab berish | Oddiy tajriba | Mashqli o'yinlar |
| | O'qib berish | | Inssenirovkalar |
| | Suhbat | | Kundalik axborot |

Kuzatish metodi. Bolalarni tevarak atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa asosan yangi bilim berishda qo'llaniladi.

Kuzatish – bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Kuzatish metodi ma'lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metod tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bu bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.

Hikoya qilib berish — materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilish. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib berish.

Suhbat metodi. 3-4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4-5 yoshli bolalar bilan ham qisqa suhbat o'tkaziladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;

O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Blits-so'rov:

1. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "kompetentlik" –

2. Mazmuniga ko'ra "kompetentlik" –

3. Maxsus (kasbiy) kompetentlik –

4. Ijtimoiy kompetentlik –

5. Shaxsiy kompetentlik – rivojlantirish

6. Individual kompetentlik –(o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar) 7. Ekstremal kasbiy kompetentlik –

8. Texnologik kompetentlik –

«FSMU»-metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida(tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida Biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda bola bolalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egaliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya (trener) o'qituvchisi uchun professional kompetentlikka va mahoratga ega bo'lish kerakmi?

F- Fikringizni bayon eting

S-Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating

M-Fikringizga misol keltiring

U- Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang

JADVALNI «PINBORD» METODI ASOSIDA TO'LDIRING

Inglizcha «**pin-maxkamlash**», «**bord-doska**» so'zlaridan olingan.

Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirish, uyushgan holda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

| Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining (trener) professional kompetentligi va imijining tarbiyaviy ahamiyati | | | | | |
|---|-------------------|----------------------------------|-------------------|----------------------|-------------------|
| <i>Pedagog va bola munosabati</i> | | <i>Professional kompetentlik</i> | | <i>Pedagog imiji</i> | |
| <i>afzalligi</i> | <i>kamchiligi</i> | <i>afzalligi</i> | <i>kamchiligi</i> | <i>afzalligi</i> | <i>kamchiligi</i> |
| | | | | | |
| | | | | | |
| Xulosa: | | | | | |

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan spektrlarni yaxshilash uchun qo‘llash, va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig‘ishga asoslanganligi tufayli an’anaviy ta’lim sistemasi har doim ham shaxsning, xususan bolaning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko‘pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.



Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmashligi tufayli bolalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar bolalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatda pedagogik kreativlik turli shakllarda namoyon bo'ladi.

3-Mavzu bo'yicha savollar

1. Pertseptiv qobiliyatlarga nimalar kiradi?
2. Maktab ishiga oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlar, maktab ehtiyojiga ko'ra, direktorning buyrug'i asosida, nimaga binoan qabul qilinadi.
3. Tarbiya metodlari necha turga bo'linadi?
4. Innovatsiya so'zining ma'nosi nima?
5. Pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish nima deb ataladi?
6. "Pedagogik mahorat" fanining maqsadi nima?
7. Nima o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi?
8. O'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati nima deb nomlanadi?
9. Pedagogning ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi nima deb nomlanadi?
10. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi necha guruhga bo'lib o'rganiladi?

4-Mavzu: "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida jismoniy rivojlanish va

sogʻlom turmush tarzini shakllantirish sohasida qoʻyilgan kompetensiyaviy talablar.

Amaliy mashgʻulotning taʼlim texnologiyasi.

| | |
|--|---|
| Oʻquv soati: 2 soat | Tinglovchilar soni: 20-25 nafar |
| Oʻquv mashgʻulotining shakli: | Amaliy mashgʻulot |
| Amaliy mashgʻulot rejasi: | <p>1. “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish” sohasidagi kompetensiyalari</p> <p>2. Jismoniy tarbiya yoʻriqchisining yosh xususiyatlariga doir mashgʻulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mahorati.</p> |
| Amaliy mashgʻulotning maqsadi: | Amaliy mashgʻulotning maqsadi tinglovchilarga “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturida jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish sohasida qoʻyilgan kompetensiyaviy talablar, jismoniy tarbiya yoʻriqchisining yosh xususiyatlariga doir mashgʻulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mahorati, shuningdek, sogʻlom bola shaxsini shakllantirishda tarbiya turlari va usullaridan samarali foydalanish boʻyicha nazariy bilimlarni shakllantirish. |
| Pedagogik vazifalar: | 1. Oʻquv natijalari: |
| <p>– jismoniy tarbiya yoʻriqchilarining sogʻlom bola shaxsini shakllantirishda tarbiya turlari va usullaridan samarali foydalanish;</p> <p>– oʻz kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tinglovchilar shaxsiy ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilishga oʻrgatish;</p> | <p style="text-align: center;">Amaliy mashgʻulotdan soʻng tinglovchilar bilishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> – pedagoglarning kompetentliklarini baholashni; – pedagog faoliyatning vazifalari, pedagogning huquq va majburiyatlarini; – kompetensiya tushunchasi va mohiyatini; – pedagogning tayanch kompetensiyalarini; – kompetensiya turlarini; |
| Taʼlim metodlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Maʼruza, suhbat, munozara, tezkor soʻrov. |
| Taʼlim vositalari: | <ul style="list-style-type: none"> • Maʼruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproektor, prezentatsiyalar. |
| Taʼlim shakli: | <ul style="list-style-type: none"> • Frontal, guruhlarda ishlash. |
| Oʻqitish shart-sharoitlari: | <ul style="list-style-type: none"> • Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga moʻljallangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash. | <ul style="list-style-type: none"> • Nazorat savollari. |

4-MAVZU. “ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURIDA JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH SOHASIDA QO‘YILGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLAR.

Reja:

4.1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasidagi kompetensiyalari

4.2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining yosh xususiyatlariga doir mashg‘ulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mahorati.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasida qo‘yilgan kompetensiyaviy talablar. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining yosh xususiyatlariga doir mashg‘ulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mahorati. Sog‘lom bola shaxsini shakllantirishda tarbiya turlari va usullaridan samarali foydalanish.

4.1. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasidagi kompetensiyalari

Psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning bola shaxsining rivojlanish me‘yorlarini hisobga olgan holda o‘quv-tarbiya jarayoniga mos metodlarni tanlay bilishi, o‘z mehnatining asosiy qadriyati bola ekanligiga e‘tibor qaratishi, o‘z-o‘zini anglashi va o‘zini o‘zgartirish ehtiyojiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Psixologik-pedagogik kompetentlikning asosini pedagogning turli yosh guruhlari bosqichida bola shaxsining rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda ta‘sir etuvchi faol bilimi va harakati tashkil etadi. O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi;

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik:

Ijtimoiy kompetentlik:

Autopsixologik kompetentlik:

Ekstremal kasbiy kompetentlik:

Pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini

o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Kreativlik so‘zi (inglizcha “create” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Amerikalik olim **D. Veksler** “Kreativlik fikrning shunday turiki, shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi ” — deb ta’rif beradi.

Tarkibiy asoslar. Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish) Autokompetentlik (o‘zini ijtimoiy- kasbiy rivojlantira olish) Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish) Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas’ullik) Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo‘lishi lozim. Kelajakda ijodiy qobiliyatlardan foydalanish uchun ta’lim jarayoniga ta’lim jarayoniga maxsus topshiriqlarni kiritish zarur

A.Maslou ham kreativlikni — barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

TUSHUNCHALAR TAHLILI

| Tushunchalar | Tushunchalar mazmuni | Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni | Qo‘shimcha ma’lumot |
|---------------------|-----------------------------|---------------------------------------|----------------------------|
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Pedagoglarning kompetentliklarini baholash:

| № | | | |
|----|---|---|------------------------|
| 1. | Favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik. Ushbu malakalarga egalikni ifodalovchi kompetentlikka xos sifat | A | autokompetentlik |
| 2. | O'zini ijtimoiy kasbiy rivojlantira olish | V | Ekstremal kompetentlik |
| 3. | Individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati | S | Pedagogik bilim |
| 4. | O'qituvchi-tarbiyachining pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko'rsatadigan jihatlarini tanlash tizimi | D | Texnologik tizim |
| 5. | Bolalarni o'qitish va tarbiyalash, ta'lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlashgan ma'lumotlar yig'indisi nima | e | kreativlik |

Javob: 1- 2- 3- 4- 5-

Javob: 1-v 2-a 3-e 4-d 5-s

Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Pedagog bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari,

o‘zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlari lozim.

Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va histuyg‘ulari rivojlanadi, o‘zida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan, kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo‘ladi.




Namuna: “Fandagi tayanch tushunchalar tahlili”

| Tushunchalar | Sizingcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi? | Qo‘shimcha ma’lumot |
|-----------------------------|---|----------------------------|
| <i>Kompetensiya</i> | | |
| <i>Jismoniy rivojlanish</i> | | |
| <i>Kreativlik</i> | | |
| <i>Mahorat</i> | | |

4.2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining yosh xususiyatlariga doir

mashg'ulotlarni tashkil etishda kreativ usullardan foydalanish mahorati


Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.




Venn diagrammasi - bu ikkita mavzu yoki g'oyalar o'rtasidagi munosabatlarni taqdim etish uchun ikki yoki uchta doira shaklidan foydalanadigan grafik. Ushbu vosita asosan ikkita asosiy mavzu o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatiladi, shuning uchun ikkala mavzu

bo'yicha bilim olish osonroq bo'ladi. Bundan tashqari, Venn diagrammasi ikki yoki uchta doiradan iborat. Bir-biriga o'xshash doiralar umumiy xususiyatga ega, bir-biriga o'xshamaydigan doiralar esa bir xil xususiyat yoki xususiyatlarga ega emas.

VENN diagrammasi



Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim.



4-Mavzu bo'yicha savollar

1. Bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta’lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlashgan ma’lumotlar yig‘indisi nima deb nomlanadi?
2. Kasbiy-pedagogik burch nima?
3. Pedagog (tarbiyachi) ning mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi nima deb nomlanadi?
4. So‘zlarning aniq talaffuz qilinishi qanday nomlanadi?
5. O‘z.Res «Ta’lim to‘g‘risidagi» qonuni qachon qabul etilgan?
6. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?
7. O‘zini ijtimoiy kasbiy rivojlantira olish deganimiz nima?
8. Izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish negizida pedagogga xos qanday kompetentlik aks etadi?
9. Individdning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiradigan ijodiy qobiliyati qanday nomlanadi?
10. Shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka, mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi qanday nomlanadi?

GLOSSARIY



Autokompetentlik- O'zini ijtimoiy kasbiy rivojlantira olish.

Audio va video vizual materiallar – o'quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovoqli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materiallar

Virtual stendlar – 1) real obyekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita

Gavdani tutish-to'g'ri tutish(yurishda, o'tirib turishda), qo'llarning rahbar va xodimi stolida erkin holatda bo'lishi, batartibli, ixchamligi.

Ijod – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlarni ifodalovchi turi

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish

Imidj — (ing. “image”) tushunchasi “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” ma'nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko'ra esa ushbu tushuncha yordamida “joziba”, “maftunkorlik” ma'nolarini ifodalaydi. Imidj — aniq bir insonga bo'lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyekt qiyofasidir.

Imitatsion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, o'qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o'quv-mashqlantiruvchi qurilma bo'lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o'zlashtirish) ko'nikmalari shakllantiriladi, ko'nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo'lgan malakalar takomillashtiriladi

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish

Innovatsion muhit– pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o‘zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi.

Innovatsion pedagogik g‘oya– tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalar; o‘quv jarayoni bashorat etilishi, ma’lumotlar to‘plami.

Innovatsion ta’lim — 1) ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni. Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim muassasasi– yangi tipdagi ta’lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta’lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya– pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyahashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o‘qitish–1) yangicha o‘qitish tizimi, 2) va bolalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.)

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

Innovatsiya — ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovatsion”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat..

Insonparvarlik — insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to‘g‘risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushuncha.

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, aralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida obyektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy-ijodiy imkoniyat – 1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik;

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti harakati

Kiyinish — ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglarning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko‘p va kamligi, ishiga mosligi.

Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Kreativlik — (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

Ko‘nikmalar – pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisiga aytiladi, zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi

Malakalar – pedagogning ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisidir

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash

Mimika-bu o‘z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini tinglovchi bajarayotgan ishdan roziligi yoki norizoligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko‘z muskullarini harakatga keltira olish san’atidir.

Moderator — qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi

Muloqot – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi

Muloqot madaniyati – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga etkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar

Novatsiya (yangilanish) — faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat

Nutq apparati – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar

Nutq madaniyati – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali etkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi

Nutq texnikasi – nutqni tinglovchi yoki ta’lim oluvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar)

Nutqli (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi

Pantomimika – bu gavda, qo‘l, oyoq harakatidir. Tarbiyachi mashg‘ulotda o‘quv ma’lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma’lumotlarning obrazini chizadi, bolalar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg‘ulari, ularning tashqi hissiyotlari bilan qo‘shilib butun borliq ma’lumotlar mazmunini o‘zlashtirishga qaratiladi.

Pedagogik ijod – pedagog (tarbiyachi)ning mahorat pillapoyalariidan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘lni, bu yo‘ldagi qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikni anglatadi

Pedagogik imidj — pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikdir

Pedagogik qobiliyat - pedagogik jarayonda tarbiyachining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi

Pedagogik madaniyat — tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, uning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yligi, to'g'riligini anglatadi

Pedagogik mahorat — tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatda qo'llashida namoyon bo'ladi

Pedagogik muomala– kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi

Pedagogik nazokat(takt) – tarbiyachining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi

Pedagogik texnika – pedagogning nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnika – o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyg'ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalaydi

Prezentatsiya (taqdimot; lot. “praesentatio” – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha o'quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog'ozlari (oddiy yoki vatman qog'ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, prorektor, protsessor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish Raqamli video lavhalar – o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 3D o'lchamdagi zamonaviy o'quv manbai

Samimiylik- atrofndagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish

Trener — trenerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan hamda o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishni, shuningdek sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs.”- deb e'tirof etilgan. (Trener – inglizcha train – o'zbek tilida tarbiyalovchi, o'rgatuvchi ma'nolarini anglatadi.)

Tyutor — (Tutorem-lotinch) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza si bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Fasilitator — (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis–engil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali holat, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

Edvayzer (advisor) – (frantsuzcha-avisen—o'ylamoq) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi

Ekstremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o'zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to'plam.

MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI



2.3. “Jismoniy tarbiya yo‘riqchisining professional kompetentligi va mahorati” modulidan test savollari

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat? | Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpo‘latova Sh. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012. |

| | |
|--|--|
| Sogʻlomlashtirish, taʼlimiy va tarbiyaviy vazifalar. | |
| Bola rivojlanishidagi aniq bir yoʻnalishlarni namoyon qiluvchi vazifalar | |
| Harakat, koʻnikma va malakalarini shakllantirish vazifalari | |
| jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni oʻzlashtirish. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 2. Maktabgacha taʼlim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari sogʻlomlashtirish vazifalari nimalardan iborat? | Asqarova Oʻ.M. Pedagogika: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik / Oʻ.M. Asqarova, M. Hayitboyev, V.S. Nishonov; OʻzR oliy va oʻrta-maxsus taʼlim vazirligi. – T.: “Talqin”, 2008-yil. 288 b. Jismoniy tarbiya yoʻriqchisining lavozim vazifalari: Maktabgacha taʼlim vazirining 2021-yil 30-dekabrda 255-son buyrugʻiga ILOVA. |
| Suyaklarning toʻgʻri va oʻz vaqtida qotishiga, umurtqa egiklarining shakllanishiga, tovon ravoqlarining rivojlanishiga, boʻgʻim-bogʻlam apparatining mustahkamlanishiga yordam berish; | |
| Harakat koʻnikma va malakalarini shakllantirish | |
| Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari | |
| Jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, koʻz bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilikni oʻstirish; | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 3. Maktabgacha taʼlim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlari pedagogik vazifasi nimalardan iborat? | N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2017 yil. 217 -bet. Maktabgacha taʼlim vazirining 2021-yil 30-dekabrda 255-son buyrugʻiga ILOVA |
| Vujudga kelgan vaziyatlarda oʻqituvchining toʻgʻri yoʻl tutib, vaziyatdan chiqib keta olishi, vaziyatni hal etishga doir vazifalarni toʻgʻri belgilab darsda oldiga qoʻygan maqsadiga erisha olishi | |
| Oʻquvchining javobgarlik burchi va hissi, intizomga oʻrgatishi | |
| Oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilim darajasini nazorat qilish va shunga doir vositalarni tanlashdan iboratdir | |
| Vujudga kelgan vaziyatlarga oʻqituvchining reaksiyasi | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--------------------------------------|--|
| 4. Professional kompetentlik- | Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... di-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: OʻzMU, 2019-yil. 61 b. |

| | |
|---|--|
| Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi | |
| Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish | |
| Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish | |
| Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 5. Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi ... deb nomlanadi? | Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat — Toshkent, TDPU, 2003-yil. 106 bet. |
| Pedagogik mahorat | |
| Pedagogik yondashuv | |
| Pedagogik tajriba | |
| Pedagogik bilimdonlik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 6. “Kompetentlik” so'zining lug'aviy ma'nosi nima? | Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012-yil. 208 -bet |
| Kompetentlik (lat. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. | |
| Kompetentlik (ing. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, o'lchov birligi | |
| Kompetentlik (fran. competens) – faoliyat talablardagi yangilik | |
| Kompetentlik (grek. competens) – faoliyat ketma-ketligi | |

| | |
|---|--|
| 7. “Integratsiya” so'zining ma'nosi to'g'ri keltirilgan qatorni belgilang? | F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma'naviyat”, 2018-yil. |
| Bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik | |
| Bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanmaganligi | |
| Bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlarining turli-tumanligi | |
| Bola ta'limi va rivojlanishidagi imkoniyatlar | |

| | |
|---|---|
| 8. Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari keltirilgan qatorni belgilang? | Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpo'latova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012. |
| Uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik | |

| | |
|---|--|
| Halollik, o'rtuqlik hissi, o'zaro yordam, topshiriqni mas'uliyat bilan bajarish | |
| Botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, chidamlilik | |
| Chidamlilik, o'rtuqlik hissi, qat'iylik | |

| | |
|--|--|
| 9. Jismoniy mashqlarni bajarishning axloqiy fazilatlariga nimalar kiradi? | M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".-T., "Toshkent "Iqtisod-moliya", 2017-yil. |
| Halollik, o'rtuqlik hissi, o'zaro yordam, topshiriqni mas'uliyat bilan bajarish | |
| Uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik | |
| Botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, chidamlilik | |
| Intizomlilik, o'rtuqlik, chidamlilik | |

| | |
|---|---|
| 10. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi o'quv tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ngyoshli bola o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring. | I.V.Grosheva, L.G Yevstafeva, D.T Mahmudova va b. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018-yil. 12-bet |
| 6-7 | |
| 4-5 | |
| 4-6 | |
| 4-10 | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 11. «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi» sohasi qaysi kichik sohalarga bo'linadi? | I.V.Grosheva, L.G Yevstafeva, D.T Mahmudova va b. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018-yil. 12-bet |
| Yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik | |
| «Men» konsepsiyasi; hissiyotlar va ularni boshqarish | |
| Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot | |
| «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 12 Jismoniy tarbiya instruktoriga qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 420 b. |
| Pedagogik, psixologik va kasbiy tayyorgarlikka | |
| Jismoniy va aqliy tayyorgarlikka | |
| Musiqiy va ilmiy bilimlarga | |
| Iqtisodiy va ijtimoiy bilimlarga | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 13. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning qaysi vazifasi, bolalarda sport mashg'ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalaydi? | M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".-T., "Toshkent "Iqtisod-moliya", 2017-yil. |
| Tarbiyaviy vazifalari. | |
| Ta'limiy vazifalari. | |

| | |
|---------------------------------|--|
| Sogʻlomlashtiruvchi vazifalari. | |
| Iqtisodiy vazifalari. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 14. Quyidagi qaysi jarayonlar chiniqtirish usullariga kiradi? | M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".-T., "Toshkent "Iqtisod-moliya", 2017-yil. |
| Tuzli yo'lka bo'ylab yurish, havo, suv, quyosh vannalari | |
| Uch oyoqli velosiped va chang'ida uchish | |
| Suv havzasida cho'milish, oftobda toblanish | |
| Ertalab predmetli badantarbiya bilan shug'ullanish | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 15. Pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish nima deb ataladi? | Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005-yil. 67- bet |
| Kreativ kompetentlik | |
| Kommunikativ kompetentlik | |
| Ekstremal kompetentlik | |
| Shaxsiy kompetentlik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 16. Maktabgacha ta'limning maqsadini ayting? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 420 b. |
| Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sogʻlom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi | |
| Bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga imkon yaratish | |
| Maktabga tayyorlash | |
| Barkamol qilib maktabga tayyorlash | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 17. «Jismoniy madaniyat» tushunchasi nimalarni o'z ichiga oladi? | M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".-T., "Toshkent "Iqtisod-moliya", 2017-yil. |
| 1. mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni | |
| 2. gigiyenik rejimga doir odatlarni | |
| 3. tabiatning tabiiy sharoitlarida organizmni chiniqtirishni | |
| 4. jismoniy mashqlarni | |
| 1,2,3,4 | |
| 1,3,4 | |
| 2,3,4 | |
| 1,2,4 | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 18. Didaktik malaka deb nima tushuniladi? | F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2018-yil. |

| | |
|---|--|
| O'qituvchining bilim va malakalarini eng samarador metodlar va vositalar bilan bolalarga yetkazishi | |
| Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonni mohirlik bilan tashkil eta olish | |
| Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari jarayonda bola-bola, o'qituvchi-jismoniy tarbiya yo'riqchisi muloqotini ijobiy tashkil eta olish | |
| Atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik bo'lish sifati | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 19. Quyida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tegishli dastlabki holatlar keltirilgan qatorni belgilang | I.V.Grosheva, L.G Yevstaf'eva, D.T Mahmudova va b. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018-yil. |
| Tik turish, o'tirish, tizzalab turish, chalqancha va qorin bilan yotish | |
| Suzish, emaklash, muvozanat saqlash | |
| Yurish, yugurish, sakrash | |
| Dumalatish, ilib olish, uloqtirish | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 20. Jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi bu... ? | O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.09.2015 yildagi O'RQ-394-son |
| O'z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o'tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o'tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs; | |
| Bolalarga bilim berish jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxs | |
| Ta'lim tizimini tashkil etuvchi yetakchi shaxs | |
| Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiruvchi shaxs | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 21. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining pedagogik-psixologik tayyorgarligi qaysi talablar kiradi? 1.Bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish; 2.Pedagogik – psixologik ziyraklik va kuzatuvchanlik ; 3.Pedagogik takt; 4. Pedagogik tasavvur; 5.Tashkilotchilik qobiliyati; | M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".-T., "Toshkent "Iqtisod-moliya", 2017-yil. |
| 1.2.3.4.5 | |
| 1.3.5 | |
| 1.2.4.5 | |
| 2.3.4.5 | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|-------|---------------------|
|-------|---------------------|

| | |
|---|---|
| <p>22. "Ilk qadam" davlat dasturida «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalariga nimalar kiradi?</p> <p>1.o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;</p> <p>2.turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; 3.turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;</p> <p>4.o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi</p> | <p>I.V.Grosheva, L.G Yevstaf'eva, D.T Mahmudova va b. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018-yil. 12-bet</p> |
| 1.2.3.4 | |
| 1,3,4 | |
| 3.4 | |
| 4.2 | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| <p>23. Shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka, mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi qanday nomlanadi?</p> | <p>Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012-yil. 108 -bet</p> |
| O'zini o'zi rivojlantirish | |
| O'zini o'zi tahlil qilish | |
| O'z-o'zini baholash | |
| O'z-o'zini anglash | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| <p>24. Trenerlik kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mutaxassis tomonidan o'zi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi qanday sifatni ifodalaydi?</p> | <p>Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012-yil. 188 -bet</p> |
| Kompetentlikni | |
| Bilimni | |
| Ko'nikmani | |
| Malakani | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| <p>25. Jismoniy tarbiya instruktorining pedagogik mahoratiga nimalar kiradi?</p> | <p>F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat", 2018-yil.</p> |
| Yuqoridagilarning barchasi | |
| Didaktik qobiliyat | |
| Pedagogik qobiliyat. Kommunikativ qobiliyat. Konstruktiv qobiliyat. Tadqiqotchilik qobiliyati | |
| Pedagogik texnika | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|-------|---------------------|
|-------|---------------------|

| | |
|--|---|
| 26. Pedagogni maktabgacha ta'limda shaxsiy yondashuvni amalga oshirishga tayyorlarlik ko'rsatgichlarini aniqlashda qaysi jihatlar inobatga olinadi? | F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat", 2018-yil. |
| Shaxsiy tayyorgarlik, Kasbiy tayyorgarlik, Refleksiv tayyorgarlik | |
| Shaxsiy tayyorgarlik, Ijodiy tayyorgarlik, Intellektual tayyorgarlik | |
| Shaxsiy tayyorgarlik, mahorat tayyorgarligi, ijodiy tayyorgarlik | |
| Shaxsiy tayyorgarlik, Kasbiy tayyorgarlik, intellektual tayyorgarlik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 27. Izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish negizida pedagogga xos qanday kompetentlik aks etadi? | Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012-yil. 288 -bet |
| Shaxsiy kompetentlik | |
| Maxsus kompetentlik | |
| Ijtimoiy kompetentlik | |
| Ekstremal kasbiy kompetentlik. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 28. Biror bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish qanday nomlanadi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 109 bet |
| Mahorat | |
| Bilim | |
| Ko'nikma | |
| Malaka. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 29. Kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash ... deb ataladi. | N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev — Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. "Sano-standart" 2015-y |
| Maxsus kompetentlik | |
| Ijtimoiy kompetentlik | |
| Shaxsiy kompetentlik | |
| Texnologik kompetentlik | |
| | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 30. Pedagogga xos bo'lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar qanday nomlanadi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 101- bet |

| | |
|---------------------|--|
| Pedagogik qobiliyat | |
| Pedagogik tajriba | |
| Pedagogik yondashuv | |
| Pedagogik malaka. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 31. Pedagog nutqiga qanday talablar qo‘yiladi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 201- bet |
| Leksik, grammatik, orfoepik | |
| fonetik, stilistik | |
| Stilistik, orfografik | |
| Orfografik, punktuatsion | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 32. Ekstremal kompetentlik tushunchasi to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang | N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev — Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y |
| Favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish. | |
| Izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. | |
| Kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash | |
| Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 33. Shaxs ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, xarakterining gavda harakati va imo-ishoralar yordamidagi ifodasi qanday nomlanadi? | Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012-yil. 201 -bet |
| Etiket | |
| Jest | |
| Mimika | |
| Pantomimika | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 35. Nutqni tinglovchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui qanday nomlanadi? | Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007-yil. – 185 b. |
| Nutq texnikasi | |

| | |
|-------------------|--|
| Nutq dialektikasi | |
| Nutq strukturasi | |
| Nutq fakturasi | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|--|
| 36. Pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik, mutanosiblik nimani ifodalaydi? | Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012-yil. 201 -bet |
| Pedagogning imijini | |
| Pedagogning nazokatini | |
| Pedagogning qobiliyatini | |
| Pedagogning obro'sini | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 37. Bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishda qanday shartlarga e'tibor qaratish zarur? | Qodirova M.,(2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI. |
| Barcha javoblar to'g'ri | |
| Bolalarni madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish. | |
| Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish. | |
| Bolalarni kattalarning barcha gigiyenik va madaniy talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish. | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 38. Pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish kompetentlikning qaysi turiga kiradi? | Ahmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg'ulotlar (O'quv qo'llanma) – T.: Noshir, 2011 |
| Innovatsion kompetentlik | |
| Kreativ kompetentlik | |
| Informatsion kompetentlik | |
| Kommunikativ kompetentlik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 39. Izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish kompetentlikning qaysi turiga kiradi? | Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg'ulotlar (O'quv qo'llanma) – T.: Noshir, 2011 |
| Shaxsiy kompetentlik | |
| Informatsion kompetentlik | |
| Innovatsion kompetentlik | |
| Kommunikativ kompetentlik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 40. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bolalar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishi uchun...? | Dergunskaya V.A., Koshkina A.A., O'yinlar – maktabgacha ta'im maskanlari tarbiyachilari bilan tajriba metodlari: |

| | |
|--|---|
| | O'quv-uslubiy qo'llanma — Moskva, Ustoz ta'limi markazi, 2013 — 64 b. |
| Avvalo o'z iqtidoriga, pedagogik va psixologik mahoratiga tayanishi lozim | |
| O'zi ishlayotgan o'quv muassasasi rahbariyatiga yordam so'rab murojaat qilishi kerak | |
| Darhol tartibsiz bolani topib unga nisbatan tarbiyaviy jazo metodini qo'llashi shart | |
| Ota-onasini o'quv muassasasiga chaqirtirishi va suhbat o'tkazib ogohlantirishi kerak | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 41. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda nimaga e'tibor beriladi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 116 -bet |
| Bolalarning yosh xususiyatlari va fiziologik holatiga | |
| Bolaning o'zini tutishi va gapirishiga | |
| Tarbiyachi va yo'riqchining vaqtiga | |
| Mudiraning ish rejasiga | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 42. Qaysi qobiliyat pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 206 -bet |
| Didaktik qobiliyat | |
| Bilish qobiliyati | |
| Konstruktiv qobiliyat | |
| Emfatik qobiliyat | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 43. Shaxslarning his — tuyg'usi va psixologik holatlarini qalbdan his etish qanday nomlanadi ? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 226 -bet |
| Empatiya | |
| Pertseptsiya | |
| Pedagogik texnika | |
| Simpatiya | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 44. Bolalar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyati...? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 226 -bet |
| O'qituvchining kommunikativ qobiliyatidir | |
| O'qituvchining pedagogik mahoratidir | |
| Pedagogik muloqot qila olish iqtidoridir | |
| Muomala madaniyatidir | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|--|
| 45. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan sport musobaqalarining vazifalari nimadan iborat? | Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. — T.: O'zb. Milliy kutubxonasi, 2007. — 185 b. |

| | |
|---|--|
| Sogʻlomlashtiruvchi, taʼlimiy, tarbiyaviy va koʻngilochar | |
| Jismoniy va tarbiyaviy | |
| Taʼlimiy va namunaviy | |
| Estetik va aerobik | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 46. Kommunikativ kompetensiya nima? | Husanov B. Gʻulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: “Iqtisod – moliya” 2009-yil. 156 b. |
| Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish koʻnikmasi | |
| Oʻyin jarayonini tashkil etish | |
| Olamni ongli idrok etishi | |
| Axloq qoidalari | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 47. ... - bolalarga taʼlim va tarbiya berishga, ularni intellektual, maʼnaviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz taʼlim turidir. | OʻRQ-595-coH 16.12.2019 https://lex.uz 3-modda |
| Maktabgacha taʼlim va tarbiya | |
| Oʻrta taʼlim | |
| Umumiy oʻrta taʼlim | |
| Oliy taʼlim | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 48.....maktabgacha taʼlim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va koʻnikmalariga doir asosiy talablar majmui. | OʻRQ-595-coH 16.12.2019 https://lex.uz 3-modda |
| Pedagogning kasbiy standarti | |
| Pedagog takti | |
| Pedagogik nazokat | |
| Pedagogik qobiliyat | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|---|---|
| 49. Informatsion kompetentlik tushunchasining maʼnosi toʻgʻri berilgan qatorni belgilang? | N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.Toʻrayev — Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y |
| Axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali maʼlumotlarni izlash, yigʻish, aralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, oʻrinli, samarali foydalanish | |
| Insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi toʻgʻrisida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida gʻamxoʻrlik qilishni ifodalovchi tushuncha. | |

| | |
|---|--|
| Mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi | |
| Mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati | |

| Savol | Manbasi va sahifasi |
|--|---|
| 50. O'z-o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati nima deb nomlanadi? | Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod -moliya, 2011-yil. 232 -bet |
| Shaxsning ichki qobiliyati | |
| Mantiqiy qobiliyat | |
| Muloqot qilish qobiliyati | |
| Kinestetik qobiliyat | |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T. O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-may, PQ-4312-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 26 mayda qabul qilingan PF-79-son Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 13 may, 391-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 25 iyul, 626-son Qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori. 2022-yil 4-iyul
9. Mirziyoyev.Sh.M. «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi». Toshkent.:O‘zbekiston. 2021 yil. -464.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2019. – 61 b.

2. Asqarova O‘.M. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun mashg‘ulotlik / O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Talqin”, 2008. – 288 b.

3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.

4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279 b.
5. Mavlonova R.A. , Rahmonqulova N.H. , Matnazarova K.O. , Shirinov M.K. , Hafizov S. .Umumiy pedagogika – T.: "Fan va texnologiya", 2018. – 528 b.
6. Munavvarov A.Q. "Pedagogika" — T.: O'qituvchi, 1996. — 200b.
7. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
8. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
9. Tursunaliyev I.A., Amonov A.N., Yeldasheva G.V., Dexkambayeva Z.A. Murabbiy-o'qituvchning pedagogik kompetensiyasi va mahorati. Uslubiy qo'llanma.- T.: Ilmiy –texnika axborot-press nashriyoti, 2019 .- 92 b.
10. Ямалетдинова Г. А. Педагогика физической культуры и спорта: курс лекций: – Екатеринбург: Изд во Урал. ун-та, 2014. — 244 с.
11. Yuldasheva N.E. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishning tashkiliy –metodik asoslari . O'quv qo'llanma. T.2023

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz/>
2. <http://eduportal.uz/>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://minsport.uz/ru>
5. <http://sportedu.uz/>
6. <http://ziyonet.uz/>